UZUMNING URUG‘SIZ NAVLARINI HOSILDORLIK KO‘RSATKICHLARI

Fayziyev Jamoliddin Nasirovich
professor, q.x.f.d
Toshkent davlat agrar universiteti
Shokirova Xabibaxon Xudoyberdi qizi
2-bosqich tayanch doktaranti
Farg‘ona davlat universiteti
Raxmonov Abduraxmon Abdurashid o‘g‘li
2-bosqich magistri Andijon qishloq
xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Maqolada uzumning urug‘siz navlarini hosildorlik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Uzumning urug‘siz navlari hosildorligi, hosildorlik koeffitsienti, hosil berish koeffitsienti va hosildorligi aniqlangan. Uzumning urug‘siz navlarida hosilli novdalar eng kup (36,8-46,6%) Motrudiy, Kishmish cherny, Kishmish kariza, Kishmish ovrutskiy va Kishmish Sog‘diana navlarida qayd etildi.Hosil berish koeffitsiyenti bo‘yicha tupdagi bir rivojlangan novdaga tog‘ri keladigan uzum boshlari (0,6) bo‘yicha Motrudiy navi alohida ajralib turdi. Uzumning urug‘siz navlarining hosildorligidagi Kishmish Sogdiana, Kishmish ovrutskiy va Kishmish cherny navlarida olindi. Ushbu navlarning hosildorligi mos holda 191,0; 165,0 va154,0s/ga ni tashkil etganligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Uzum, uzumning urug‘siz navlari, hosildorlik ko‘rsatkichlari, hosildorlik koeffitsienti, hosilli novdalar, uzum boshlari.

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha tokzorlarning umumiy maydoni 7 mln 546 ming gektarni, yalpi uzum xosili 63 mln tonnani tashkil etmoqda.Yetishtiriladigan uzum xosilni asosiy qismi 83% vino tayyorlash, 12 % yangiligicha istemol qilish va 5% quritish uchun ishlatiladi. Xozirgi kunda dunyoni uzum yetishtiruvchi mamlakatlarida uzum xosildorligini oshirishda yangi navlarni yaratish, urug‘siz uzum navlarini agrabiologiyasini ishlab chiqishni takomillashtirish dolzarb muommolardan biri xisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini muxim tarmog‘i bo‘lgan uzumchilik soxasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida uzumning istiqbolli urug‘siz navlarini chiqarish ullarni agrobiologiyasini o‘rganish va eng maqbul agrotexnikani ishlab chiqish amalyotda qo‘llash muxim vazifallardan biri xisoblanadi.

Novdalar hosildorligi, uzumning hosildorlik koeffitsiyenti, uzum boshi og‘irligi kabi ko‘rsatkichlar aksariyat holatda hosilning umumiy hajmini belgilab beradi. Shu bois har bir tanlanayotgan navda ushbu ko‘rsatkichlar tahlil qilish barpo etiladigan

bo‘lajak tokzorning potentsial hosildorligini oldindan bashorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uzum hosildorligining novdalardagi differentsiatsiyalangan hosilli kurtaklarga bog‘liqligi O.Ye.Djamarova va P.P. Radchevskiy kabi olimlarning tadqiqot ishlarida alohida ta’kidlangan. Aynan mana shunday novdalar uzumning bo‘lg‘usi hosildorligini belgilab beradi. Uzuning o‘rganilgan urug‘siz navlarida hosilli novdalar miqdorini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, eng ko‘p (36,8-46,6%) hosilli novdalar uzumning Motrudiy, Kishmish cherny, Kishmish kariza, Kishmish ovrutskiy va Kishmish Sog‘diana navlarida qayd etildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Uzumning urug‘siz navlarini hosildorlik ko‘rsatkichlari, 2020-2021 yillar

T/r	Navlar	Hosilli novdalar, %			Bir hosilli novdaga to‘g‘ri keladigan uzum boshining o‘rtacha soni, dona	Bir novdaga to‘g‘ri keladigan uzum boshining o‘rtacha soni, dona
		bir uzum boshli	ikki uzum boshli	jami		
1.	Kishmish cherny – nazorat	34,1	3,8	37,9	1,3	0,4
2.	Kishmish Sog‘diana	33,8	3,2	37,0	1,3	0,4
3.	Motrudiy	37,8	8,8	46,6	1,3	0,6
4.	Kishmish ovrutskiy	33,7	3,1	36,8	1,3	0,4
5.	Qora bedona	25,9	2,5	28,4	1,3	0,3
6.	Kishmish bely – nazorat	16,4	3,4	19,8	1,3	0,3
7.	Kishmish Samarqand	23,1	1,8	24,9	1,2	0,4
8.	Kishmish kariza	31,5	5,5	37,0	1,3	0,4
9.	Kishmish irtishar	18,6	1,8	20,4	1,2	0,3
10.	Kishmish mramorny	17,4	2,4	19,8	1,2	0,3

Hosilli novdalarning eng kam – 19,8-20,4% miqdori uzumning Kishmish mramorny, Kishmish bely va Kishmish irtishar navlarida aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha qolgan navlar yuqoridagi nav guruhlari orasida oraliq o‘rin egalladi va ularda hosilli novdalar miqdori 24,9-28,4% oralig‘ida bo‘ldi.

Motrudiy va Kishmish kariza uzum navlarida ikki uzum boshli novdalar eng ko‘p


miqdorda bo‘ldi va mos ravishda 8,8% va 5,5% ni tashkil etdi. Ikki uzum boshli novdalarning eng kam – 1,8% miqdori Kishmish irtishar, Kishmish Samarqand uzum navlarida aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha qolgan uzum navlari oraliq o‘rin egalladi va ularning tuplarida bunday novdalar 2,4-3,8% ni tashkil qildi.

Novdalarning hosildorligi yillar bo‘yicha tahlil qilinganda Kishmish cherny uzum navida eng barqaror bo‘ldi. Bu navda o‘rtacha qiymatdan farqlanish ±2% ni tashkil qildi.

Hosil berish koeffitsiyenti bo‘yicha tupdagi bir rivojlangan novdaga to‘g‘ri keladigan uzum boshlari (0,6) bo‘yicha Motrudiy navi alohda ajralib turdi. Boshqa navlarda mazkur ko‘rsatkich uncha yuqori bo‘lmay, bir rivojlangan novdaga to‘g‘ri keladigan uzum boshlari koeffitsiyenti 0,3 ni tashkil etdi.

Uzumning urug‘siz navlarining hosildorligidagi farqlanish ham sezilarli darajada ekanligi qayd etildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tadqiqot yillari mobaynida eng yuqori barqaror hosil uzumning Kishmish Sogdiana, Kishmish ovrutskiy va Kishmish cherny navlarida olindi. Ushbu navlarning hosildorligi mos holda 191,0; 165,0 va 154,0 s/ga ni tashkil etdi (3.8-rasmga qarang).

Tadqiqot yillarida eng past hosildorlik – 130,0-131,0 s/ga uzumning Motrudiy va Kishmish mramorny navlarida aniqlandi. Qolgan navlar o‘rtacha hosildorli guruhni tashkil etdi va ularda ushbu xo‘jalik ko‘rsatkichi 135,0-150,0 s/ga atrofida o‘zgardi.



1-rasm. Uzumning urug‘siz navlari hosildorligi, s/ga; 2020-2021 yillar

Xulosa Eng yirik uzum boshlari uzumning Kishmish Sog‘diana (599,0 g), Qora bedona (468,2 g), Kishmish cherny (338,6 g) navlarida, kichik uzum boshlar esa Motrudiy navida (176,6 g), qolgan navlarda o‘rtacha uzum boshlar (246-284 g) hosil bo‘ladi. Eng yirik g‘ujumlar Kishmish Sog‘diana va Kishmish Samarqand navlarida

(o‘rtacha 4,0-4,5 g), mayda g‘ujumlar – 0,9-1,9 g Kishmish mramorny, Kishmish ovrutskiy, Kishmish bely va Kishmish kariza navlarida qayd etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Дикань А. П. Плодоносность почек винограда как результат прохождения ими первого критического периода // Виноградарство и виноделие: Сб. науч. тр. ГБУ ННИИВиВ «Магарач». – Том XLV. – Ялта, 2015. – С. 32–35.

2.Дикань А.П. Резервы увеличения производства винограда. – Симферополь: Бизнес-Информ, 2010. – С. 87-91.

3.Михловски М. Эволюция винограда на устойчивость к неблагоприятным биотическим и абиотическим факторам. // Виноград и вино России. – М., 1994. – №6. – С. 23-24.

4.Temurov Sh.Uzumchilik. “O‘zbekiston milliy ensikloprdiyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent -2022.